

## X. ISTE'MOL BOZORI


2022- yilning yanvar–mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2633,4 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 116,6 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2,2 % martaga ko‘payib, 624,4 mlrd.so‘mni va umumiyl chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 23,7 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 0,6 % ga o‘sib, 1632,4 mlrd. so‘mga etdi, umumiyl chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 62,0 % ni tashkil qildi.

Umumiyl tovar aylanmasi hajmining 376,6 mlrd. so‘mi uyushmagan savdo (dehqon va chorva bozorlari) hisobiga to‘g‘ri keldi va o‘sish sur’ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga oshdi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 14,3 % ga teng bo‘ldi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi**  
(2022- yilning yanvar–mart holatiga)




2022- yilning yanvar–mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalananadi.

Davlat mulki 1,0 mlrd. so‘mni, nodavlat mulki 2632,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

*Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyl hajmida eng katta ulush Urganch shahri 43,8 %, Gurlan tumani 9,0 % hisobiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek: Tuproqqal'a tumani 1,6 %, Yangibozor tumani 2,1 %, Xiva tumani 2,2 %, va Xiva shahri 3,1 % eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.*

**Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi  
(% hisobida)**



2022- yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati 2,2 martaga oshgan. O'z navbatida, Urganch shahrida (2021- yilning shu davriga nisbatan 2,6 martaga), Xonqa tumanida (138,2 foizga), Bog'ot tumanida (115,2 foizga) va Xiva shahrida (102,9 foizga) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 31,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil qildi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,2 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 40,4 %, Urganch tumani 14,2 % hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, Yangiariq tumani 1,7 % va Tuproqqa'l'a tumani 1,9 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi**  
*(umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda)*

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan% da</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan% da</i>
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2 633,4</b>	<b>116,6</b>	<b>1 366,2</b>	<b>114,7</b>
Urganch shahar	1 153,7	144,8	7 848,5	142,9
Xiva shahar	80,9	98,9	847,8	97,1
tumanlar:				
Bog'ot	111,0	96,5	653,7	94,7
Gurlan	235,8	120,5	1 548,6	118,4
Qo'shko'pir	84,1	100,4	477,0	99,0
Urganch	215,2	100,4	1 045,1	98,3
Hazorasp	211,0	94,3	1 060,2	93,2
Tuproqqal'a	42,2	92,9	743,7	90,1
Xonqa	145,6	100,5	758,7	98,7
Xiva	58,3	98,8	388,9	97,3
Shovot	146,4	92,1	838,4	90,7
Yangiariq	94,2	101,2	790,8	99,6
Yangibozor	55,1	117,4	614,8	115,6

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda) aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,7 % bo'lib, 1 366,2 ming so'mni tashkil etdi (2021- yil yanvar-mart oylarida 1 071,2 ming so'm). O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlarini Urganch shahri (7 848,5 ming so'm), Gurlan tumanida (1 548,6 ming so'm) va Hazorasp tumanida (1 060,2 ming so'm), eng past ko'rsatkichlar esa Xiva tumanida (388,9 ming so'm), Qo'shko'pir tumanida (477,0 ming so'm) qayd etdi.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning  
(uyushmagan savdo qo'shilgan holda) ulushi, %**



2022- yilning yanvar–mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 679,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil qilib, ulardagi hajm 116,4 mlrd. so'm bo'ldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,0 % ni tashkil qilib 562,8 mlrd. so'm bo'ldi va umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 82,9 % ni tashkil qildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	<i>Jami mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Yirik korxonalar mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Kichik korxonalar mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha jami:</b>	<b>679 243,9</b>	<b>109,2</b>	<b>116 424,5</b>	<b>110,1</b>	<b>562 819,4</b>	<b>109,0</b>
Urganch shahar	335 964,1	108,5	38 865,6	60,7	297 098,5	121,0
Xiva shahar	38 337,4	160,3	191,1	90,6	38 146,4	160,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	24 094,9	2,0 m.	12 918,6	5769,1 m.	11 176,3	94,7
Gurlan	11 533,2	88,6	0,6	0,1	11 532,5	96,3
Qo‘siko‘pir	4 616,3	121,3	1,6	41,8	4 614,7	121,4
Urganch	138 652,6	112,6	47 740,6	126,1	90 912,0	106,6
Hazorasp	7 223,9	117,0	92,6	59,9	7 131,3	118,5
Tuproqqał'a	5 268,8	81,7	1,7	23,2	5 267,1	81,8
Xonqa	44 792,1	178,4	16 238,0	8,2 m.	28 554,1	123,4
Xiva	48 196,3	73,4	0,7	13,5	48 195,5	73,4
Shovot	6 732,5	94,1	8,0	111,7	6 724,5	94,1
Yangiariq	4 578,9	41,4	14,0	16,4	4 564,9	41,6
Yangibozor	9 253,0	61,0	351,4	91,2	8 901,6	60,2